

MOLIYA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA MIKROMOLIYA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Yadgarova Malika Lutpillayevna

TDIU. “BBX va auditi” kafedra, katta o’qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18091723>

Har qanday mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, avvalo, moliya infratuzilmasining samarali faoliyatiga bog’liq. Moliya infratuzilmasi iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo’lib, u iqtisodiyot sub’ektlari o’rtasida moliyaviy resurslarni taqsimlash, ulardan samarali foydalanish va iqtisodiy faollikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

So’nggi yillarda O’zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi, tadbirkorlik sub’ektlarini qo’llab-quvvatlash hamda aholi turmush darajasini oshirish maqsadida moliya infratuzilmasi tizimini isloh qilish va takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda mikromoliya xizmatlari muhim o’rin tutadi, chunki ular aholi va kichik biznes sub’ektlarining moliyaviy resurslarga bo’lgan imkoniyatlarini kengaytiradi, moliyaviy faolligini oshiradi va iqtisodiy tashabbuslarni rag’batlantiradi.

Moliya infratuzilmasi — bu iqtisodiy sub’ektlar o’rtasidagi moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishni ta’minlovchi institutlar va mexanizmlar majmuidir. Uning asosiy tarkibiy qismlariga banklar, nobank kredit tashkilotlari, sug’urta kompaniyalari, investitsiya va pensiya fondlari, shuningdek, mikromoliya institutlari kiradi.

Moliyaviy infratuzilmalarning maqsadlari:

- Jahon, milliy va hududiy iqtisodiyotni bir maromda rivojlantirish;
- Moliya bozorida qonun qoidalarga rioya qilish va havfsizlikni ta’minlash;
- Investitsion faollikni ta’minlash;
- Innovatsion texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish;
- Kichik biznesni qo’llab-quvvatlash.

Shu bilan birga, samarali moliya infratuzilmasi moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning istiqbolli yo’nalishlariga yo’naltiradi. Aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining moliya bozorida ishtirokini ta’minlaydi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash va mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash kabi vazifalarni amalga oshiradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to’g’risida”gi farmonida “Nobank moliyalashtirishning yangi biznes-modellarini joriy qilish” masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu farmonga muvofiq, 2025 yilga kelib nobank kredit tashkilotlari aktivlarining umumiy kredit tashkilotlari aktivlaridagi ulushini 5 foizga yetkazish rejalashtirilgan. “Prezidentimizning 2023 yil 10 noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyaxizmatlarining o’rni va ulushini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori xam mazkur sohani rivojlantirishga qo’yilgan muhim qadam shular sirasiga kiradi¹”.


Mikromoliya xizmatlari — bu kam ta’minlangan aholi qatlamlari, xususiy tadbirkorlar va kichik biznes sub’ektlariga kichik miqdordagi moliyaviy resurslar taqdim etishga qaratilgan moliyaviy xizmatlar tizimidir.

Mikromoliya xizmatlarining asosiy turlari:

¹ 2023 yil 10 noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o’rni va ulushini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-384 sonli qarori

- mikrokreditlar va mikroqarz berish;
- kichik biznes va tadbirkorlarni moliyalashtirish;
- aholiga kichik hajmdagi sug'urta xizmatlarini taqdim etish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirishga ko'maklashish.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning miqdorlar bo'yicha taqsimlanishi*



Rasm. *Markaziy bank ma'lumotlari

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2024 yilning yanvar-sentabr oylarida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning aksariyati (39 foizi) 10 million so'mgacha bo'lgan kreditlardir. 20-50 million so'mgacha bo'lgan kreditlar 30 foizni, 50-100 million so'mgacha bo'lgan kreditlar 19 foizni, 10-20 million so'mgacha bo'lgan kreditlar esa 12 foizni tashkil etgan. Qayd etish joizki, 2023 yilning 1 oktabr holatida 52 foizni tashkil etgan 20-50 million so'mgacha bo'lgan kreditlarning ulushi 2024 yilning 9 oyi yakunlariga ko'ra 22 foizga pasayib, jami ajratilgan kreditlarning 30 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, 10-20 million so'm miqdoridagi kreditlarda ham pasayish kuzatilib, ularning ulushi 2024 yil oktabr holatiga 17 foizdan 12 foizgacha qisqardi. Aksincha, 10 million so'mgacha bo'lgan kreditlar hajmi 12 foizga o'sib, jami ajratilgan kreditlardagi ulushi 39 foizga yetdi. Bundan tashqari, yirik miqdordagi kreditlar hajmida ham sezilarli o'sish kuzatildi. Xususan, 50-100 million so'm miqdoridagi kreditlarning jami ajratilgan kreditlardagi ulushi 2024 yil 1 oktabr holatiga 4 foizdan 19 foizga ko'tarildi².

Iqtisodiy tizimda moliya infratuzilmasi aholi va tadbirkorlik sub'ektlari uchun moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash hamda ularni oqilona boshqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekistonda moliya infratuzilmasini takomillashtirish jarayonida mikromoliya xizmatlari alohida muhim o'rin tutadi. Ular kichik biznes va aholining moliyaviy resurslarga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytiradi, moliyaviy faollikni oshiradi va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

² Ўзбекистон Президенти 10.11.2024 й. "Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришда микромоліа хизматларининг ўрни ва улушини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарор

Shu bilan birga, mikromoliya xizmatlarini samarali tashkil etish orqali kreditlash imkoniyatlari kengayib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish asosida mikro kreditlar, subsidiyalar va grantlar dasturlarini joriy etish orqali mikromoliya institutlarini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish mikromoliya xizmatlaridan samarali foydalanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mikromoliya xizmatlari orqali iqtisodiy faollikni kengaytirish, ya'ni kichik biznes va aholi uchun yangi investitsiya imkoniyatlari, ish o'rinlari hamda barqaror daromad manbalarini yaratishga alohida e'tibor qaratish zarur.